


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 5 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-5>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Yakubova Matluba Tajiboevna SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLARNING ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATIDAGI BADIY AHAMIYATI.....	8
2. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI MA'NODOSH SO'ZLAR TAHLILI.....	17
3. Yangibayeva Nodira, Rahimova Mohigul HAYOT-MAMOT MOTIVINING IKKI XIL BADIY TALQINI.....	25
4. Niyazmetova Shahlo Adamboyevna ULUG'BEK HAMDAM SHE'RLARIDA PARALLELIZMLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.....	31
5. Pirmatova Ozodaxon Saparboyevna SHOLICHILIK LEKSIKASI VA GURUCHLI TAOM NOMLARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	35
6. Jumanyazova Muxabbat Xusinovna XORAZM XALQ QO'SHIQLARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO'ZLARNING ETIMOLOGIYASI XUSUSIDA.....	40
7. Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna, Melikova Martaba Numonovna INFLUENCE OF GLOBALIZATION ON THE COMMUNICATION PROCESS.....	44
8. Raufjon Maxmudov, Anaxon Vapayeva O'ZBEK VA RUS TILLARI LEKSIKASIDA ENG YANGI QATLAM.....	51
9. Ихтиёр Бабаназаров XII ACP XORAZM ILMIIY-ADABIY MUHOJIRDA MAHMUD ZAMAXSHARIYNING TUTGAN UYRI.....	56
10. Rayxan Madaminova HOFIZ XORAZMIY "DEVON"IDAGI KO'P MA'NOLI LEKSIK BIRLIKLARNING ASARDAGI O'RNI.....	62
11. Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI.....	69
12. Matyakubova Surayyo Abdullayevna OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SINONIMIYASI.....	73
13. Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR.....	78

IQTISODIYOT

1. Karimova Madina

XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI BAHOLASH.....83

2. Baxtiyarova Sabohat Baxtiyarovna

STRATEGIK MENEJMENTNING O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI TATBIQI.....91

PEDAGOGIKA

1. Davletov Erkaboy Yusbovich

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.....95

2. Usanova Zulfiya Bozorovna

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING GENEZISI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI...98

3. Odinaeva Gulshoda Shavkatovna

TARBIYA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DAXLDORLIK TUYG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....102

PSIXOLOGIYA

1. Raximov Bobur, Radjapova Dilnura

SHAXS IJTIMOIIYLASHUVINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....107

TARIX

1. Babajanova Nilufar Alisherovna

QUYI AMUDARYO TARIXIIY-GEOGRAFIK REGIONIDA URBANISTIK JARAYONLAR. AHOLINING JOYLASHISHI VA TARIXIIY TARAQQIIYOT SAHIFASI.....111

2. Bekchanov Doniyor

XORAZM JADIDLARI QARASHLARIDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASH MASALALARI.....115

3. Tajiyeva Umida Rajabboevna

O'ZBEK XALQI MADANIYATIDA TABIATGA MUNOSABATNING BA'ZI MASALALARI.....119

4. Tilovboyeva Mardona Aybekovna

O'RTA OSIYO MINTAQASI TABIIY-GEOGRAFIK HOLATI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR.....123

5. Исмаилов Улугбек Сапарбой огли

ПРОБЛЕМА ХИЩНИКОВ В ЭКОЛОГИИ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА.....127

6. Rajabova Zuhra Sa'dullayevna, Raximova Intizor Rustamovna

XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHIDA TURKISTONDA TA'LIM TIZIMI TRANSFORMATSIYASINING BA'ZI MASALALARI.....132

7. Marimov Muzaffar Erkinovich	
XX ASRNING 20-30-YILLARI XORAZM OKRUGIDA SOG‘LIKNI SAQLASH SOHASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR.....	137
8. Bekchanov Doniyor	
AVAZ O‘TAR QARASHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARI.....	141
9. Sultanov Samandar Mahmud o‘g‘li	
XORAZM VOHASI VA G‘ARBIY SO‘G‘D HUDUDLARINING GEOGRAFIK SHAROITI, HUDUDIIY CHEGARALARI MASALALARI.....	145
10. Abdullayev Abdurasul Abdulpattoevich	
QUR‘ONI KARIM OYATLARINI TAVIL QILISHDA ISHORIY TAFSIRLARNI O‘RNI.....	149
11. Misrbekova Makhliyo	
THE REPRESENTATION OF USTRUSHANA’S HISTORY IN NUMISMATIC SOURCES...	155
12. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich	
YANGI O‘ZBEKISTONDA OROL FOJIASINI HAL ETISHGA YONDASHUVNING TUBDAN O‘ZGARISHI VA UNING NATIJALARI.....	161
13. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna	
QADIMGI MARKAZIIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI.....	167

Xo'jamurodova Iroda Anvar qizi-

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

SEMIOTIKA: NAZARIY ASOSLAR VA TADQIQOTLAR<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15670115>**ANNOTATSIYA**

Maqolada zamonaviy adabiy-nazariy tadqiqotlar kontekstida semiotika sohasining shakllanish jarayoni, asosiy konseptual yo'nalishlari hamda klassik va zamonaviy davr olimlarining nazariy qarashlari tahlil qilinadi. Strukturalizm va semiotika kabi yondashuvlarga ilg'or ilmiy makonlarda ortib borayotgan e'tibor ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning nazariy refleksiya-siga ehtiyoj ortganini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida semiotik tahlilning metodologik asoslari yetakchi mutaxassislar izohlari asosida yoritilib, belgilar tizimining adabiy matn mazmunini anglashdagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Semiotika, belgilar nazariyasi, tahlil, munosabatlar, matnlararo aloqalar, timsol, ramz.

Хужамуродова Ирода Анвар кызы-Магистрант 1 курса Бухарского
государственного педагогического института**СЕМИОТИКА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИССЛЕДОВАНИЯ****АННОТАЦИЯ**

В статье анализируется процесс формирования области семиотики в контексте современных литературно-теоретических исследований, основные концептуальные направления, а также теоретические взгляды учёных классического и современного периода. Повышающееся внимание к подходам, таким как структурализм и семиотика, в передовых научных кругах свидетельствует о возросшей потребности в теоретической рефлексии социально-культурного прогресса. В ходе исследования методологические основы семиотического анализа освещаются на основе комментариев ведущих специалистов, раскрывается роль знаковых систем в понимании содержания литературного текста.

Ключевые слова: семиотика, теория знаков, анализ, отношения, интертекстуальные связи, образ, символ.

Khojamurodova Iroda Anvar qizi-

1st-year Master's Student, Bukhara State Pedagogical Institute

SEMIOTICS: THEORETICAL FOUNDATIONS AND RESEARCH

ABSTRACT

The article analyzes the development of the field of semiotics in the context of modern literary and theoretical research, highlighting its main conceptual directions and the theoretical perspectives of both classical and contemporary scholars. The growing attention to approaches such as structuralism and semiotics in advanced academic circles reflects an increasing need for theoretical reflection on socio-cultural development. Throughout the study, the methodological foundations of semiotic analysis are elucidated through the interpretations of leading experts, revealing the role of sign systems in understanding the meaning of literary texts.

Key words: semiotics, theory of signs, analysis, relationships, intertextual connections, image, symbol.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Zamonaviy gumanitar fanlar ichida semiotika o'zining nazariy asoslari va amaliy qo'llanishi bilan ajralib turadi. Ushbu fan turli sohalarda, jumladan, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, estetik tadqiqotlar va hatto marketing, psixologiya kabi sohalarda ham keng qo'llaniladi. Semiotika belgilar tizimini o'rganadi va inson tafakkuri bilan bog'liq chuqur jarayonlarni tahlil qilish imkonini beradi.

“Semiotika” so'zi qadimgi yunon tilidagi “semeion” (belgi) so'zidan olingan bo'lib, “belgilar to'g'risidagi fan” degan ma'noni anglatadi. Bugungi kunda semiotika faqat nazariy fan emas, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Shveysariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur va amerikalik faylasuf Charlz S. Pirs tomonidan asos solingan semiotika keyinchalik Roland Bart, Yulia Kristeva, Umberto Eco kabi ko'plab olimlar tomonidan rivojlantirildi. Bugungi kunda esa bu fan sohasida yangi yo'nalishlar, jumladan, biosemiotika, visual semiotika va multimodal tahlil yondashuvlari shakllanmoqda. O'zbekiston fan makonida ham semiotik yondashuvlar til va adabiyotshunoslikda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Shveysariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur semiotika fanining nazariy poydevorini yaratganlardan biridir. U tilni belgilar tizimi sifatida talqin qilgan va bu borada “semiologiya” atamasini fanga olib kirgan. U quyidagicha ta'kidlaydi: “Ko'z oldimizga jamiyat hayoti doirasida amal qiladigan belgilar tarzini o'rganadigan fanni keltirishimiz mumkin: bunday fan ijtimoiy, binobarin, umumiy psixologiyaning bir qismi bo'lishi mumkin: biz uni semiologiya deb atashimiz mumkin.” [1,27]

Sossyur belgilarni ikki qismga ajratadi: signifiant (belgilovchi) va signifié (belgilanuvchi). Bu ikki qism o'zaro aloqada bo'lib, tilni bir butun tizim sifatida shakllantiradi. U tilni strukturaviy yondashuv asosida o'rganadi va belgilar tizimini tahlil qilishda sintagmatik va paradigmatic munosabatlarni asos qilib oladi.

Amerikalik faylasuf Charlz Sanders Pirs esa semiotikani mustaqil ilmiy fan sifatida rivojlantirgan. U belgilarni indeks, ikona, va simvol kabi uch asosiy turga ajratgan.

Indeks – sabab-natija bog'liqligiga ega bo'lgan belgi (masalan, tutun – olov mavjudligining belgisi);

Ikona – tashqi ko'rinish bo'yicha o'xshashlik asosida hosil bo'lgan belgi (masalan, rasm);

Simvol – ijtimoiy kelishuv orqali ma'no kasb etgan belgi (masalan, bayroq, harflar, raqamlar). [7, 139]

Pirsning semiotikasi mantiqiy analiz bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u semiotikani tafakkur jarayonlarining asosiy komponenti deb biladi.

Fransuz adabiyotshunosi va faylasufi Roland Bart semiotikani madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik doirasida chuqur tadqiq qilgan. U belgilar tizimining ikki qavatli tuzilishini ishlab chiqqan:

Denotatsiya – belgining lug'aviy, so'zma-so'z ma'nosi;

Konnotatsiya – belgining ijtimoiy, madaniy yoki emotsional ma'nosi. [4,110]

Bart “Mifologiyalar” asarida ommaviy axborot vositalarining belgilar orqali mafkuraviy mazmunni qanday uzatishini tahlil qiladi. U reklama, moda, kino kabi sohalarni semiotik nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi.

Yulia Kristeva semiotikaga psixoanaliz va feminizm nazariyalarini olib kirgan. Uning eng muhim nazariy g‘oyasi bu – intertekstuallikdir. Bu tushuncha shuni bildiradiki, har bir matn boshqa matnlar bilan bog‘liq va hech qachon mustaqil mavjud bo‘lmaydi. Kristeva tilni ikki qatlamga ajratadi:

Semiotik qatlam – ongsiz, irratsional, ritmik, musiqiy;

Simvolik qatlam – grammatik, mantiqiy va ijtimoiy tartibga solingan. [2, 73]

Kristevaning qarashlari matnlarni chuqur, ko‘p qavatli tahlil qilish imkonini beradi.

Italiyalik faylasuf va yozuvchi Umberto Eco semiotikani keng ko‘lamda tushunishga harakat qilgan. Uning “A Theory of Semiotics” (1976) asari semiotika tarixida muhim o‘rin tutadi. Eco belgilarni nafaqat til tizimi, balki madaniyat, din, siyosat va hatto moda orqali ham tahlil qiladi. U quyidagicha ta’rif beradi: “Belgi – bu boshqa narsaning mazmunli o‘rnini bosuvchi har qanday narsa” [5, 9].

Eco nazarida semiotika bu – muloqot va madaniyatni anglashning kaliti. U belgilarni “ochiq” va “yopiq” deb ikkiga ajratadi:

Ochiq matn – o‘quvchiga har xil talqin qilish imkonini beradi;

Yopiq matn – muayyan g‘oya yoki mafkurani qat’iy shaklda uzatadi. [5, 50]

Rus-amerikalik tilshunos Roman Yakobson belgilar tili va kommunikatsiya jarayoniga yondashgan. U mashhur olti komponentli kommunikatsiya modelini ilgari surgan:

- Kontekst
- Xabar
- Kod
- Kanal
- Jo‘natuvchi
- Qabul qiluvchi

Yakobson, ayniqsa, shoirona til va fonologiya sohalarida belgilar qanday ishlashini tahlil qilgan. U til tizimida metafora va metonimiya asosiy yondashuv ekanini ko‘rsatgan. [6, 370]

Rus faylasufi va adabiyotshunosi M. Baxtin semiotik tahlilga interaktivlik va kontekstual ma’no kabi tushunchalarni olib kirdi. Uning “polifoniya” tushunchasi adabiy matnlardagi ko‘p ovozlilikni bildiradi. U har bir belgi yoki so‘z o‘z vaqtida, o‘z joyida boshqa belgilar bilan munosabatda bo‘lib yashaydi, degan fikrni ilgari surgan. Baxtin semiotikani doimiy muloqot shakli sifatida ko‘radi. [12, 35]

Amerikalik olim Thomas Sebeok semiotikani biologik jarayonlarga ham tatbiq qilgan va biosemiotika yo‘nalishini asoslagan. U nafaqat inson, balki hayvonlar va o‘simliklar ham belgi orqali muloqotda bo‘lishini isbotlagan. Sebeok fikricha, hayotning o‘zi semiotik jarayondir. “Har qanday tirik mavjudot – bu belgilarni ishlab chiqaruvchi va talqin qiluvchi tizimdir” [9, 12], - deydi u.

Sebeok semiotikani kengaytirib, til, madaniyat, biologiya va atrof-muhit bilan bog‘liq universal yondashuvni taklif qiladi.

Fransuz faylasufi Baudrillard belgilarni ijtimoiy haqiqatdan ajratilgan holatda tahlil qiladi. U “simulyak” (soxta belgi) va “giperreallik” (soxta haqiqat) tushunchalarini ilgari suradi. Uning fikricha, zamonaviy jamiyatda belgilar o‘z ma’nosini yo‘qotib, faqat o‘zining boshqa belgilar bilan bog‘liq sun’iy sistemasi sifatida mavjud bo‘ladi. Masalan, reklamada mahsulot emas, uning tasviri va aurası muhimroq bo‘lib qoladi. [8, 2]

Zamonaviy olimlar G. Kress va T. van Leeuwen multimodal semiotikaga asos solgan. Ular nafaqat so‘zlar, balki rasm, rang, maket, tovush kabi elementlarning ham belgilar sifatida qanday ishlashini o‘rgangan.

Ularning “Reading Images: The Grammar of Visual Design” asari vizual belgilarni tahlil qilishda nazariy asos hisoblanadi. Masalan:

Ranglar – emotsional belgi;

Kompozitsiya – ierarxiya yoki dominatsiya belgisi;

Pozitsiya – kuch va ijtimoiy rol ifodasi. [10, 131]

O'zbekistonda semiotika sohasi to'g'ridan to'g'ri alohida yondashuv sifatida keng rivojlanmagan bo'lsa-da, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, san'atshunoslik doirasida semiotik tahlillar olib borgan yoki belgi tizimlarini o'rgangan olimlar mavjud. Jumladan:

G'ayrat Murodov – timsollar va matnshunoslik asosida ishlagan;

Qudrat Yoqubov, Orifjon Jo'rayev, Jahongir Sanoqulov – belgilar tizimi va ularning matndagi funksiyasini o'rganishgan;

Rayhonoy Saidova semiotika sohasida salmoqli ishlarni olib borgan yetakchi olimlardandir. U “Badiiy matnda belgi munosabatlari” mavzusida falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilgan. R.Saidova ushbu tadqiqotda badiiy matn tarkibidagi belgilar o'rtasidagi paradigmatic, syntagmatic va zid munosabatlarni tahlil qilib, ularning matn yaxlitligini shakllantirishdagi o'rnini aniqlagan. Shuningdek, matnlararo aloqa va bog'lanishlarni oydinlashtirib, badiiy matnning yaxlit tizim ekanligini ko'rsatgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, semiotik yondashuv orqali til va matn tarkibidagi ramzlar, timsollar, lingvistik birliklar va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash mumkin. Har bir belgi o'zining ma'no darajalariga ega bo'lib, ular jamiyat, madaniyat va shaxsiy idrok orqali talqin etiladi.

Semiotika yordamida quyidagi sohalarda muhim ilmiy natijalarga erishish mumkin:

Reklama va marketing – mahsulot belgilarining mijoz ongi va emotsiyasiga ta'siri;

Kino va seriallar – vizual va verbal belgilar orqali ideologiya uzatish;

Siyosiy nutqlar – ramzlar orqali targ'ibot;

Raqamli kommunikatsiya – emoji, piktogrammlar, memlar.

Masalan, kino kadrlaridagi ranglar, musiqa, harakat belgilarini tahlil qilish orqali film g'oyasi chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, QR-kodlar, logotiplar va brendlar ham semiotik yondashuv orqali o'rganiladi.

O'zbek adabiy matnlarining semiotik jihatdan tahlili ularning madaniy-ma'naviy mazmunini chuqurroq ochib beradi. Masalan, ramz va timsollar orqali yozuvchining ichki dunyosi, jamiyatga munosabati ifodalanadi.

XULOSA

Semiotika zamonaviy ilm-fanning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u til, madaniyat, san'at, adabiyot va kommunikatsiyada belgilar qanday ishlashini tushunishga xizmat qiladi. Uning asoschilari bo'lgan Sossyur, Pirs, Barthes va Kristeva kabi olimlarning qarashlari bu fanning nazariy poydevorini tashkil etadi. O'zbekistonda esa Rayhonoy Saidova, Dilbar Eshonqulova, Zebo Mirzayeva, Qudrat Yoqubov, Orifjon Jo'rayev, Ma'rufjon Yo'ldoshev kabi olimlar bu yo'nalishda chuqur izlanishlar olib bormoqda. Semiotika yordamida biz matnlar, belgilar va ramzlar ortidagi chuqur ijtimoiy va madaniy ma'nolarni anglay olamiz.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Ferdinand de Sossyur. Umumiy tilshunoslik kursi. Toshkent: Tafakkur qanoti, 2016.
2. Kristeva Yuliya. Revolution in Poetic Language. New York: Columbia University Press, 1984.
3. Saidova Rayhonoy. Badiiy matnda belgi munosabatlari. Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2020.
4. Roland Barthes. Mythologies. London: Vintage, 1972.
5. Umberto Eco. A Theory of Semiotics. Bloomington: Indiana University Press, 1976.
6. Roman Jakobson. Style in Language. MIT Press, 1960.
7. Charles S. Peirce. Collected Papers of Charles Sanders Peirce. Cambridge: Harvard University Press, 1960.
8. Jean Baudrillard. Simulacra and Simulation. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994.
9. Thomas A. Sebeok. Signs: An Introduction to Semiotics. Toronto: University of Toronto Press, 1994.

10. Gunther Kress, Theo van Leeuwen. Reading Images: The Grammar of Visual Design. London: Routledge, 1996.
11. Daniel Chandler. Semiotics: The Basics. London: Routledge, 2007.
12. Mikhail Bakhtin. Problems of Dostoevsky's Poetics. University of Minnesota Press, 1984.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000